

## YANGI O'ZBEK ADABIYOTI TARAQQIYOTI

**Mirzayeva Bahoroy Shuxratjon qizi**

*Farg'ona Davlat Universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining jamiyat hayotida tutgan o'рни. Yangi o'zbek adabiyoti taraqqiyoti va bosqichlari va uning xususiyatlari ko'rsatiladi*

**Kalit so'zlar:** *Matbuot, munozara, umrguzaronlik, ilm-fan, dunyoviy adabiyot, adabiyot-xalq ijodi*

Yangi o'zbek adabiyoti qariyb ming yillik tarixiy yo'lni bosib o'tgan mumtoz so'z san'atimizning uzviy davomi sifatida dunyoga keldi. Undan avvalgi o'zbek adabiyoti o'z taraqqiyotida ikki katta bosqichdan o'tgan edi. Birinchi bosqich Ull-Xl asrlardagi Islom dinigacha bo'lgan turkiy tillarda yaratilgan adabiyotni qamrab olishi bilan xarakterlanadi. Ikkinchi bosqich esa XII-XIX asrlarda Islom mafkurasi tasirida vujudga kelgan o'zbek adabiyotini o'z ichiga oladi. Demak, XX asr o'zbek adabiyoti so'z san'atimiz rivojidadagi uchinchi bosqichni tashkil etadi. So'nggi yillarda XX asr o'zbek adabiyotini qanday nomlash to'g'risida munozaralar qizib ketdi va bu xususda matbuotda turli-tuman takliflar o'rtaga tashlandi. Juda ko'p nomlar orasida Yangi o'zbek adabiyoti atamasi ham ilgari surildiki, u mazkur davrdagi so'z san'atimiz taraqqiyoti mohiyatiga, tabiatiga, fikrimizcha, hammadan ko'ra mosroq keladi. Iron davr adabiyotini yangi deb atash uchun uning ilgari davrlar so'z san'atida uchramaydigan belgilari, tamoyillari bo'lishi zarur. XX asr o'zbek adabiyoti ana shunday juda ko'p yangi belgilarga ega edi. Uning yangiligidan dalolat beruvchi birinchi xususiyati shundan iborat ediki, XX asr o'zbek so'z san'ati dunyoviy adabiyot sifatida maydonga chiqdi. Unga qadar bizning tariximizda to'la manodagi dunyoviy adabiyot bo'lmagan. To'g'ri, deyarli shu paytga qadar XIU-XU asrlardagi o'zbek adabiyoti Dunyoviy adabiyot deb kelinar edi. Faqat bu atama o'sha davr adabiyotiga mutlaqo mos kelmaydigan, noto'g'ri qo'llangan termin hisoblanadi. Chunki XIU-XU asr o'zbek so'z san'atida, xususan, uning cho'qqisi bo'lgan Alisher Navoiy ijodida dunyoviy ruh emas, balki ilohiy mazmun yetakchilik qiladi. Haqiqiy o'zbek dunyoviy adabiyoti faqat XX asrda maydonga keldi. Bu adabiyotning dunyoviyliigi, dastavval, shu bilan belgilanadiki, unda olam, inson va uning hayoti faqat ilohiyot bilan bog'liqlikda emas, balki ilm-fan yutuqlari, borliq to'g'risidagi tabiatshunoslik qonuniyatlari asosida talqin qilina boshlandi. Bunday talqin xalqqa tushunarli bo'lishi uchun yangi o'zbek adabiyotining boshlovchilari, birinchi navbatda, kitobxonning o'zi bilimli bo'lishi, ilm-fanning ahamiyatini yetarlicha anglab olishi zarur deb hisobladilar. Ular aksariyat asarlarining markaziga bilimli odam baxtga erishuvi haqidagi o'yan qo'yidilar. Adabiyot-xalq ijodi. U Inson hayotida alohida ajralmas qism desak mubolag'a bo'lmaydi. Inson

qancha ko'p umrguzaronlik qilsa, adabiyot shuncha ko'p yashaydi. Ya'ni adabiyotning rivojlanishi inson bilim mahsuliga bog'liq. Shu bilan bir qatorda, adabiyotning boqiyiligiga sabachi ikkita omil mavjuddir. Ulardan biri adabiyotning g'oyat katta tarbiyaviy ahamiyatiga ega bo'lganligi, ikkinchisi, adabiyotning inson kayfiyatiga va ongiga ta'sir qilishidir. Inson bu ikki narsasiz yasholmaydi, shuning uchun har qanday davrda va har qanday joyda adabiyot u bilan har doim hamrohdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Muxtarov A., Sanaqulov U. O`zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
2. Tursunov U., O`rinboev B. O`zbek adabiy tili tarixi. Toshkent, 1995.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o`zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006. -B.397
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M. va boshq. Hozirgi o`zbek adabiy tili. - Toshkent: Fan va Texnologiya, 2009. - B.310.

